

Aviakompaniya rahbariyatining yoshlar bilan uchrashuvi

2026 18 Mart

Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida talabalar bilan «savol-javob» shaklida ochiq muloqot bo'lib o'tdi. Uchrashuv yoshlar orasida katta qiziqish uyg'otdi, savollar mazmunli va turli yo'nalishlarda bo'lib, ularga aviakompaniya rahbarlari javob berdilar.



Talabalar asosan amaliyot o'tash, kelajak mutaxassislariga qo'yiladigan talablar, uchuvchilik va muhandislik yo'nalishlari bo'yicha masalalarga katta e'tibor qaratdilar. Shuningdek, uchuvchilar uchun zarur bo'lgan sifatlar, aviatsiya muhandislariga qo'yiladigan talablar, ishga joylashish imkoniyatlari, xorijiy tilni kasbiy darajada bilish hamda tibbiy talablarga moslik masalalari muhokama qilindi.





Shu bilan birga, «2+2» dasturi bo'yicha savollar ham ko'tarildi, jumladan, aviakompaniya tomonidan moliyalashtirish va ehtimoliy xavflar haqida. Rahbarlar ta'kidlashicha, yetarli darajada tayyorgarlik bo'lmagan taqdirda, talabalar o'qishdan chetlatilishi mumkin.



Tadbir iliq va do'stona muhitda o'tdi, rahbarlar o'z tajribalari bilan o'rtoqlashib, talabalarning barcha savollariga batafsil javob berdilar.